

Ilmiy to'garak: "Yosh anatom"

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Normal anatomiya" kafedrasida talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyati **"Yosh anatom"** nomli talabalar ilmiy to'garagi orqali yo'lga qo'yilgan. To'garak faoliyati Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bo'lib o'tgan xalqaro va respublika miqyosidagi talabalar ilmiy-amaliy konferensiyalari doirasida alohida yig'ilishlar tashkil etish orqali amalga oshirilmoqda. Unda talabalar normal anatomiya sohasidagi **dolzarb muammolar hamda zamonaviy tibbiyot yondashuvlari** bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlarini tayyorlab, respublika tanlovlariga faol ishtirok etib kelishmoqda. To'garak faoliyati anatomiya faniga qiziquvchi barcha talabalarni o'z ichiga oladi. A'zolar o'z yutuqlari bilan rag'batlantirilib, kafedra bilan hamkorlikda faol ilmiy muhitda ishlashmoqda. To'garak a'zolari o'zaro bir-birlari bilan fikrlar almashishi bilan birga o'qish jarayonida qiynalayotgan talabalarga fan o'zlashtirishlari borasida yordam berishadi. To'garak a'zolari orasida fan bo'yicha musobaqalar tashkil etiladi. Turli qiziqarli tadbirlar tashkil etiladi.

To'garak rahbari:

Tilyaxo'djayeva Gulbahor Batirovna Normal anatomiya kafedراسи katta o'qituvchisi

To'garak sardori:

Sharifjonov Oybek — 2-kurs "Davolash ishi" fakulteti talabasi, 10 dan ortiq ilmiy maqola va tezislار muallifi va hammuallifi, "Yil talabasi" sohibi.

To'garak a'zolari soni:

Bugungi kunda **"Yosh anatom"** ilmiy to'garagida **40 dan ortiq talaba** faol ishtirok etmoqda. Har bir talaba kafedra assistentlariga birlashtirilgan bo'lib, ular o'rtasida **"ustoz-shogird" an'analari** muvaffaqiyatli shakllantirilgan. Kafedra yig'ilishlarida talabalar ilmiy ish mavzularini tanlash, tadqiqot metodikasini o'rganish, birlamchi hujjatlarni rasmiylashtirish va ilmiy hisobot yuritish bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallab bormoqdalar. Shuningdek, talabalarning **oratorlik mahoratini rivojlantirish** maqsadida o'z ilmiy ishlari bo'yicha prezentatsiyalar tashkil etilib, ularning tahlili o'tkazilmoqda. Kafedra mudiri va mas'ul o'qituvchilar

tomonidan institut iqtidorli talabalariga biriktirilgan ilmiy mavzular shakllantirilgan bo‘lib, talabalar tezislar, maqolalar hamda ilmiy hisobotlar tayyorlab borishmoqda. To‘garak a‘zolari hozirgacha o‘tkazilgan **xalqaro va respublika olimpiadalari hamda konferensiyalarda** faol ishtirok etib, ijobiy natijalar ko‘rsatib kelishmoqda. Bundan tashqari, Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Normal anatomiya” kafedrası TIJ a‘zolari **xalqaro va respublika OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda** ilmiy rahbarlari bilan hammualliflikda maqolalar chop etib kelmoqdalar.

